

Yunusova Barchinoy Mahmudxonovna
Namangan davlat universiteti doktoranti (DSc)
Email: barchinoyyunusova21@gmail.com.
[Mobile phone: +998999795105](tel:+998999795105)

“ALPOMISH” DOSTONINING BADIY FONETIK TIZIMIDA ONOMATOPEYALARNING O’RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Alpomish” dostonidagi onomatopeya hodisalarini lingvofolkloristik tahlil qilish, ularning badiiy-poetik funksiyalarini aniqlash va dostonning umumiy badiiyligidagi o’rnini ochib berish maqsad qilingan. Tadqiqot jarayonida dostonning Fozil Yo’ldosh o’g’li kuylagan variantidagi fonetik hodisalar tahlil qilinadi, ularning xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so’zlar. Badiiy fonetika, onomatopeya, fonetik hodisa, lingvofolkloristika, folklor matni, og’zaki poetik nutq, “Alpomish” dostoni.

Юнусова Барчиной Махмудхоновна
Докторант (D.Sc.) Наманганского государственного университета
Email: barchinoyyunusova21@gmail.com.
[Мобильный номер: +998999795105](tel:+998999795105)

РОЛЬ ОНОМАТОПЕИ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ФОНЕТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ЭПОСА “АЛПОМЫШ”

Аннотация: В данной статье целью является лингвофольклористический анализ явления ономотопеи в эпосе “Алпомыш”, определение их художественно-поэтических функций и раскрытие их роли в общей художественности эпоса. В процессе исследования анализируются фонетические явления в варианте эпоса, исполненном Фозил Йулдош оглы, и раскрываются их особенности.

Ключевые слова: Художественная фонетика, ономотопея, фонетическое явление, лингвофольклористика, фольклорный текст, устная поэтическая речь, эпос “Алпомыш”.

Yunusova Barchinoy Mahmudxonovna
D.Sc. researcher, Namangan State University
Email: barchinoyyunusova21@gmail.com.
[Mobile phone: +998999795105](tel:+998999795105)

THE ROLE OF ONOMATOPOEIA IN THE ARTISTIC PHONETIC SYSTEM OF THE “ALPOMISH”

Abstract: In this article, the aim is to conduct a linguo-folkloristic analysis of onomatopoeia in the epic “Alpomish”, to define their artistic and poetic functions, and to reveal their role in the overall artistry of the epic. During the research process, phonetic phenomena in the version of the epic performed by Fazil Yuldash o’g’li are analyzed, and their characteristics are revealed.

Keywords: Artistic phonetics, onomatopoeia, phonetic phenomenon, linguo-folkloristics, folklore text, oral poetic speech, the epic “Alpomish”.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik fanining rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog’liq bo’lib, tilning o’ziga xos xususiyatlari ham doimiy ravishda o’zgarib va takomillashib boradi. Til jamiyat hayotining ajralmas qismi sifatida jamiyat bilan birga rivojlanadi va takomillashadi.

Bugungi kunda til hodisalarini o’rganishda antropologik yondashuvning keng qo’llanilishi fonetik tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Shu munosabat bilan, xalq og’zaki ijodi namunalarining, xususan, folklor matnlarining tovush tuzilishi, tovushlarning tasviriy-ifodaviy ahamiyati, og’zaki poetik nutqning ohangdorlik xususiyatlari kabi masalalar lingvofolkloristika sohasining dolzarb muammolariga aylangan.

Lingvofolkloristika xalq og’zaki ijodining til xususiyatlarini o’rganuvchi fan sifatida, folklor matnlaridagi fonetik hodisalarni o’ziga xos metodologiya asosida tahlil qiladi. Xalq dostonlari, qo’shiqlari, ertaklar, maqollar kabi og’zaki an’anaviy matnlarning tovush jihatidan o’rganilishi natijasida ularning badiiy qimmati va madaniy ahamiyati yanada chuqurroq anglashiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: O’zbek lingvofolkloristikasida “Alpomish” dostonining leksik, dialektal, frazeologik, uslubiy, lingvofolkloristik, onomastik xususiyatlari R.Rasulov, S.Tursunov, B.To’ychiboyev, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, I.Yormatov, S.Yo’ldosheva, A.Abdiyev, Y.Hojiyev, D.Ashurov, B.Yunusovalar tomonidan o’rganilgan. T.Mirzayev, J.Eshonqul, S.Fidokor, B.O’rinboyev, K.Bozorboyev, A.Turobovlar

tomonidan dostonga doir lug'atlar ham yaratilgan, biroq dostonda fonetik birliklarning roli maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur maqolada qiyosiy tahlil, semantik tahlil, tasniflash, tavsiflash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Og'zaki folklor matnlaridagi tovushlar nafaqat ma'no ifodalovchi birliklar, balki madaniy kod va an'analarning ham aks ettiruvchisidir. "Alpomish" kabi xalq dostonlarida qo'llanilgan fonetik vositalar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarining lingvistik ifodasidir.

Og'zaki badiiy ijod namunalari, xususan, xalq dostonlari dastlab eshitish va og'zaki yetkazib berishga asoslanganligi sababli, ularning badiiy qimmatini faqatgina yozma matn orqali emas, balki jonli nutq va intonatsiya orqali to'liq anglashiladi. Bu esa og'zaki asarlarning estetik ta'sirchanligini oshiradi, muallifning his-tuyg'ularini yaqqol ifodalaydi va tinglovchiga chuqur ta'sir qiladi.

Lingvofolkloristika nuqtai nazaridan olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "Alpomish" dostoni kabi o'zbek folklorining noyob namunalari fonetik vositalar, xususan onomatopeya hodisasi, nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki xalqning dunyoqarashi, madaniyat an'analari va tarixiy tajribasining aksidir. Dostondagi har bir fonetik element o'ziga xos ma'naviy va madaniy mazmunni ifodalaydi.

"Alpomish" dostoni qadimiy og'zaki an'alar asosida shakllanganligi sababli, uning fonetik tuzilishi va tovush ifodasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Dostonda qo'llanilgan onomatopeya hodisalari nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki xalqning dunyoqarashi, madaniyati va tarixiy tajribasining aksidir, shuningdek, bu fonetik hodisa xalqning turli hayotiy vaziyatlarga bo'lgan munosabatini ham aks ettiradi. Dostonning har bir fonetik elementi o'ziga xos semantik va madaniy yukni tashiydi.

O'zbek folklorining qimmatli durdonalaridan biri bo'lgan "Alpomish" dostoni tilshunoslik va folklor tadqiqotlari nuqtai nazaridan o'rganilganda, uning nafaqat mazmuni, balki fonetik tuzilishi va tovush ifodasining ham badiiy-poetik kuchi namoyon bo'ladi. Bu esa dostonning o'ziga xos xalqona talqin va badiiylikni ko'rsatadi.

Onomatopeya - bu tabiatdagi va atrof-muhitdagi turli tovushlarni so'zlar orqali ifodalash san'ati bo'lib, "Alpomish" dostonida bu hodisa o'ziga

xos xalqona talqin va badiiylik bilan namoyon bo'lgan. Dostonning o'ziga xosligi shundaki, u og'zaki an'anada shakllanganligi sababli, tovush ifodasiga alohida e'tibor berilgan.

“Alpomish” dostonidagi onomatopeya hodisalarini o'rganish orqali nafaqat dostonning badiiy go'zalligi, balki o'zbek xalqining maishiy hayoti, urf-odatlarini va madaniy qadriyatlarini anglash imkoniyati yuzaga chiqadi. Bu esa lingvofolkloristikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Badiiy matnda emotsional-ekspressivlikni ta'minlashda onomatopeyalar katta ahamiyatga ega. Onomatopeya – poetik nutqda she'r yoki prozadagi tovush hodisalariga badiiy taqlid qilish usuli. [1.B.215]. Onomatopeya (tovushga taqlid qilish) – bu tabiat, hayvonlar, inson harakatlari yoki jarayonlar tovushlarini lingvistik jihatdan aks ettirishdir.

Tilshunos olim N.Mahmudovning ta'kidlashicha, “Tildagi eng sodda, tabiiy va qadimiy so'zlar tovushga yoki obrazga taqlid asosida yuzaga kelgan so'zlar hisoblanadi. Tilshunoslikda tilning paydo bo'lishi bilan bog'liq talqinlarda taqlidiy so'zlar masalasiga ham alohida o'rin beriladi. Hatto til tabiatdagi mavjud xilma-xil tovushlarga taqlid qilish asosida yuzaga kelgan degan qarash ham yo'q emas. Aytish mumkinki, muayyan predmetga xos bo'lgan tovushli harakat, asosan, taqlidiy fe'l bilan ifodalanadi. Bunday so'zlar tegishli predmetni juda aniq-tiniq tasavvur qilish imkonini beradi, o'sha predmetning ovozi yoki obrazi quloqdar ostida aks sado berib turadi”. [2.B.32]

“Alpomish” dostonida onomatopeya hodisasini quyidagi shaklda kuzatishimiz mumkin:

*O'n olti urug' Qo'ng'iroq urug'ining odamlari, eshitgan xaloyiq **guros-guros** bo'lib kela berdi.* [3.B.35]. Berilgan matnda “guros-guros”, takroriy taqlid so'zi onomatopeyaning namunasi hisoblanadi. Uning semantik funksiyasi – ko'pchilik harakatining tovush tasvirini yaratish. O'zbek tilining izohli lug'atida guras-guras, gurros-gurros – to'da-to'da bo'lib, to'p-to'p shaklida izohlangan. [4.B.266]

“Guros-guros” – jamoaviy harakatning akustik tasviri bo'lib uni quyidagicha talqin qilishimiz mumkin: a) ko'p odamlarning shovqinli harakati ya'ni, aylanib yurish, g'ovur solish tovushini aks ettirgan; b) takror – reduplikatsiya orqali shovqinning kuchayib borishi ko'rsatib berilgan.

O'n ming uyli elat borar yo'l tortib,

*Mamlakatni bir **g'ovur-to'zon** tutib,
Borayotir uzoq yo'lni changitib.* [3.B.48.]

Matn tarkibida qo'llangan g'ovur-to'zon juft so'zi onomatopeya hodisasiga misol bo'ladi va sokin cho'ldan o'tayotgan karvon sharpasini ko'z o'ngimizda yaqqol gavdalantiradi. G'ovur-to'zon – muhitning tovushli portreti. “G'ovur” – chang, shag'al tovushi qattiq undoshlar /g'/, /r/ keskinlikni bildiradi. O'zbek tilining izohli lug'atida g'ovur – turli tartibsiz ovozlari, shovqin-suron: g'ovg'a tarzida izohlangan, masalan, Yiqilganlar orasida g'ovur boshlandi. [4.B.541.]

To'zon – havoga ko'tarilgan (to'zgan) xas-xush va boshqa mayda narsalar aralash chang. Daryo qurisa ham, o'zani qolar, Bo'ron bosilsa ham, to'zoni qolar. [4.B.249.]

Taqlidiy so'zlar o'ziga xos badiiy kuchga ega bo'lib, ularning ta'siri beqiyosdir. Ayniqsa, bu so'zlar she'riyatda qofiyalar orqali ifodalanganda, ularning badiiy quvvati yanada kuchayadi. Qofiya bilan uyg'unlashgan taqlidiy so'zlar she'rga joziba bag'ishlaydi. Natijada, ularning ifodaviy kuchi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. “Alpomish” dostonidagi quyidagi misralar fikrimizning isbotidir. Alpomish Qalmoq yurtiga yori Barchinni qutqarish uchun ketayotgani tasviri onomatopeya fonetik hodisasi sabab o'quvchi va tinglovchi ko'z o'ngida aniqroq reallashgan:

*Dubulg'a boshda **do'ng'ullab**,
Kark qubba qalqon **qarqillab**,
Tilla poyanak urilgan,
Uzangilarga **shirqillab**.
Bedov otlari **dirkillab**,
Olg'ir qushdayin **charqillab**,
Qo'lda nayzasi **so'lqillab**.* [3.B.114.]

Mazkur misrada Alpomishning yorini qutqarish uchun uzoq o'lkaga ketayotgan safar tasviri, uning harakatlari va otining harakatlari deyarli tovush tasvirlari orqali ifodalangan. Bu esa tasvirni jonli, dinamik va chuqur ta'sirchan qiladi. Onomatopeya yordamida tasvir yanada hayotilashtirilgan va tinglovchining tasavvurida tiriklik kasb etgan.

G.V.Gorbanevskaya tovushlarni ifodalovchi so'zlar, ya'ni onomatoplarni uch guruhga bo'lish taklifini beradi: a) tabiat ovozlari: shamol, yomg'ir, bo'ron kabi hodisalarning ovozi (shovullamoq, gumburlamoq); b) narsa va

predmetlar ovozi (taraqlamoq, g'ijirlamoq); d) jonli mavjudotlar ovozlari: inson va hayvonot tomonidan chiqariladigan ovozlar (shivirlamoq, pishillamoq kabi). [5.B.73-78]

Yuqorida keltirilgan misradagi do'ng'ullab, qarqillab onomatoplari G.V.Gorbanevskaya tasnifiga ko'ra rasman ikkinchi guruhga, ya'ni narsa va predmetlar ovozlariiga mansub. Lekin doston kontekstidada bu taqlidiy so'zlar go'yo jonli mavjudot ovozlari nolasi kabi ishlatilgan, ularga metaforik ma'no berilgan. Bu vosita orqali yo'lning uzunligi va mashaqqati, shuningdek, qahramonning yori va g'ururini saqlash uchun ko'rsatayotgan jasorati va va bu yo'lda o'z jonini ham qurbon qilishga tayyorligi uning o'z tilidan emas, balki atrofidagi jonsiz buyumlarning "ovozlari" orqali ham ifodalanadi. Bu esa xalq og'zaki ijodining har bir detaldagi badiiy chuqurligi va donoligini ko'rsatuvchi yaqqol misoldir.

Shuningdek, do'ng'urlab onomatopi og'ir dubulg'aning ot minish paytida chayqalib ishqalanishidan chiqadigan bo'g'iq, "do'ng'ur-do'ng'ur" ohangdagi tovushni aks ettiradi. Ushbu lingvistik tasvir qahramonning kuchli jangchi, haqiqiy alp sifatidagi qiyofasini yaratishga xizmat qiladi.

Qarqillab - qalqonlarning, kark qubbaning bir-biriga urilishi yoki chayqalishi natijasida chiqadigan metall, qattiq jaranglovchi tovush. Bu Alpomishning jangga tayyorligi va uning qurollarining nafisligini ko'rsatadi.

Shirqillab - tilla bilan qoplangan uzangilar, poyanakning bir-biriga ishqalanganda chiqaradigan nozik, jiringlovchi tovush. Bu tovush ot minish harakatining davom etayotganligini va safarning uzoqligini anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida shiriq va shiriqlamoq shaklida berilgan bo'lib, shiriq - "metall, shisha parchalari kabi narsalarning bir-biriga urilishidan hosil bo'lgan tovushni bildiradi"; shiriqlamoq - "shiriq" etgan tovush chiqarmoq, shiqirlamoq" [4.B.645.]. tarzida sharhlangan. Shirqillamoq bu taqlidiy so'zlarning xalq tilidagi fonetik variantidir.

Dirkillab - "dirk-dirk" harakat qilmoq, silkinib, tebranib turmoq. Otning yurishi va har xil harakatlaridagi holatlarning obrazli ifodalanishi. Sakragannamo, dik-dik harakat qilmoq, dikir-dikir sakrab yurmoq. [6.B.53.]. Taqlidiy so'z tarkibidagi d fonemasi portlovchi, qisqa va kuchli konsonant. "Dir" bo'g'ini - otning qattiq qo'sh tizzalari yerga tegayotganda chiqadigan tovushni aks ettiradi. "d" fonemasi harakatning keskinligi va kuchliligini bildiradi, so'zning o'zida ot qadamlari ritmini aks ettiradi, harakatni ko'z

oldimizga jonli keltiradi. Shuningdek, dirkillab taqlidida o'zbek xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan obrazli ifoda, aytilishida o'ziga xos ohangdorlik mavjud. "D" fonemasining qatnashishi "dirkillab" so'ziga kuchli onomatopik va kinestetik, ya'ni harakatni his etish xususiyat bag'ishlaydi, bu esa folklor matnining badiiy qimmatini oshiradi va milliy madaniy merosimizning noyob ifoda vositalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Bu onomatopga folklor matnlari uchun xos bo'lgan "dirka" so'zi asos qilib olingan bo'lib, silkingan, sapchigan, sakragan holatli ma'nosini anglatadi: *G'irko'kim o'ynasin tog'larda dirka, Orqada berk turib kuchingni tirka. Davlatimning soyasida, Hasanxon, Chambilda o'tirgin sen bo'lib erka.* ("Avazxon" dostoni). [4.B.873.]. Bu otning kuchi, tezligi va safarning jadalligini bildiradi.

Charqillab - talpinmoq, ildamlamoq. [6.B.242.]. Yoki otning tez yugurishi paytida chiqadigan shovqin, shuvillash va uning nafas olishidagi kuchli tovush. Bu misrada otni "olg'ir qush"ga o'xshatish orqali uning tezligi va o'ziga xos qichqirig'i tasvirlanadi.

So'lqillab - asta tebranmoq, selkillamoq. Nayzaning havoda tez siljishi yoki qimirlatilganda chiqadigan tovush. Bu Alpomishning doimiy tayyor holati va nayzasining harakatchanligini ko'rsatadi. So'lqillab onomatopiga so'lq taqlidiy so'zi asos qilib olingan bo'lib, D.O'rinboyeva "Folklor asarlari tiliga xos so'zlarning izohli lug'ati"da bu so'zni "jonivorlarning yurishi va har xil harakatlar ta'sirida yerning obrazli ifodalanishi; tebranishi" [6.B.177.] tarzida izohlaydi.

Harakat va tezlik tasviri: "dirkillab", "charqillab", "so'lqillab" kabi so'zlar Alpomishning uzun safaridagi doimiy va jadal harakatini, uning shoshqinligini ta'kidlaydi.

Dubulg'a va qalqonning og'ir, metall tovushlari Alpomishning kuchli, qurollangan va jangga tayyor jangchi ekanligini ta'kidlaydi.

She'riy misrada qo'llangan har bir onomatopeya so'z Alpomishning safaridagi turli jihatlarni: uning kuchini, otining tezligini, qurollarining holati va yo'lning uzoq-davomiy tabiatini ta'kidlashga xizmat qilgan. Bu tovush tasvirlari dostonga nafaqat badiiylik, balki kuchli kinematik ta'sir ham beradi, ya'ni o'quvchi voqeani jonli tomosha qilgandek, xuddi o'zi guvohi bo'lgandek barcha sezgi a'zolari bilan his qiladi.

*Ko'kaman alp Barchinning burumidan ushlab, poygaga qarab torta boshladi. Barchin o'zini o'ngg'arib, qo'lini uzatdi, bir qo'li Ko'kamanning yoqasiga yetdi, bir qo'li bilan belbog'idan tutdi. "Yo, Shohimardon pirim", – deb ko'tarib, chalqaramon qilib yerga qo'ydi. Chap tizzasini ko'kragiga qo'yib turdi. Og'zi burnidan **dirak-dirak** qon keta berdi. [3.B.177.].*

Dirak-dirak – laxta-laxta. Ushbu misolda ham taqlidiy so'z turli ma'no nozikliklari bilan ifodalangan bo'lib, tinglovchiga nutq vaziyatining jarangi yaqqol eshitilayotganday, tasvir go'yo ovoz bilan chizilayotganday anglashiladi.

"Alpomish" dostoni nafaqat mazmuni, balki undagi har bir so'zning, jumladan, onomatopeyalarning nozik va ma'nodosh qo'llanilishi bilan ham buyuk badiiy yodgorlik ekanligini isbotlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Onomatopeya og'zaki dostonlarda mnemonik vazifa bajaradi – matnni yodda saqlashni osonlashtiradi. Dostonlarda onomatopeya epik voqeaning tovush olamini rekonstruksiya qiladi, xalq harakatining keng miqyosligi va dinamikasini fonetik vositalar orqali yetkazadi, dostonning og'zaki ijroga mo'ljallanganligini tasdiqlaydi, tovushlar eshitishda tasavvurni faollashtiradi. Bu so'zlar o'quvchida va tinglovchida jang maydonidagi shovqinni, tabiat tovushlarini eshitgandek hissiyot uyg'otadi. Ahamiyati shundaki, bu fonetik hodisa sabab o'quvchining tasavvur qilishi osonlashadi, matnni eslab qolishi va yodlashi qulaylashadi. Bu hodisa "Alpomish" dostonining badiiy fonetikasi tizimida muhim strukturaviy va estetik vazifani bajaradi.

Onomatopeyalar tilning boylik manbai bo'lib, ular yordamida nafaqat atrof-muhit tovushlari, balki harakatlar va his-tuyg'ular ham aniq va jonli ifodalanadi. Ular nutqning ifodaviy kuchini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Umuman olganda, onomatopeyalar ham tovushlarning poetik imkoniyatlarini ko'rsatuvchi, tinglovchiga muayyan tushunchalarni yetkazishda betakror tashbehlarga asoslanib ifodalovchi fonopoetik birliklardir. [7.B.47]

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – B.215.
2. Mahmudov N. O'zbekning o'lmas so'zi // Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B.32.
3. Alpomish. O'zbek xalq ijodi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – 1,2,3,4,5,6-j.
5. Горбаневская Г.В. Слова – звукообозначения в художественной прозе. Русская речь. – Москва: Наука, 1981. – С.73-78.
6. D.B.O'rinbayeva. Folklor asarlari tiliga xos so'zlarning izohli lug'ati. – Samarqand, 2017.

7. Tursunova O.A. O'zbek tili fonetik birliklarining poetic imkoniyatlari. Filol. Fanlari nomz...diss. – Farg'ona, 2019.
8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=THVA4OIAAAAJ&citation_for_view=THVA4OIAAAAJ:u5HHmVD_uO8
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=THVA4OIAAAAJ&citation_for_view=THVA4OIAAAAJ:9yKSN-GCB0IC
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=THVA4OIAAAAJ&citation_for_view=THVA4OIAAAAJ:d1gkVwhDpl0C